



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№6(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 284 sahifa,
1-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Milliy xarakter tushunchasining pedagogik va aksiologik talqini.....	10
Usmonova Muattar Bahadirjonovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'zini o'zi anglashida muloqotning o'rni	14
Yaxshiboyeva Zuhra, Pardayeva Munisa	
Maktabgacha ta'lim tizimida sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishning zamonaviy usullari	17
Dilsora Shodmonova	
Педагогические предпосылки развития билингвизма у детей в дошкольных образовательных учреждениях	24
Истамова Нигора Азимжановна	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida neyrogimnastika texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik asoslari.....	29
Saidova Nigora Olimovna, G'ulomova Shaxnoza Abdusalom qizi	
Jismoniy tarbiya va sport: iqtidorli yoshlarni tanlash, saralash va ularni maqsadli tayyorlashning zamonaviy yo'llari.....	32
Muxamedjanov Shovkat Muxrumovich	
Yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasida tarixiy xotira, milliy meros va qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari.....	36
Nomozov Muhammadyusuf Meyliqul o'g'li	
Sport tashkilotlarida rahbarlik qilish va boshqarish.....	40
Artikov Xayrulla Baxtiyarovich	
Formation and Development Stages of Terminology as a Scientific Discipline	44
Lola Mannobova	
Lexicographic Features of Onomastic Units in English and Uzbek Dictionaries	48
Berdiyeva Mashhura Tulqin qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining qobiliyat, qiziqish va o'rganish usullarini hisobga olgan pedagogik metodlar va dars rejaları	51
Abdullaeva Gulmira, Egamberganova Yorqinoy Ollobergan qizi	
Disputning ingliz romanlaridagi pragmatik va lingvokulturologik ko'rinishlari	55
Abdumalikova Diyoraxon Rafiqjon qizi	
O'yin texnologiyalarining aqliy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni	59
Abdunazarov Abdumutal Olimovich	
Auditoriyada va auditoriyadan tashqari jarayonda talabalar ijtimoiylashuvini rivojlantirish mexanizmlari	64
Alimova Gulrux Farhod qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda interaktiv o'yin texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari	70
Axtamova Mohinur O'tkir qizi	
Oilaviy zo'ravonlikka uchragan ayollarni qo'llab-quvvatlashda mahalla va ijtimoiy xizmatlarning o'rni	74
Dumarova Gulfira Kozimbekovna, To'Iqinova Muxlisaxon Jamshid qizi	
O'zbek milliy romanchiligida tarixiy haqiqat va badiiy talqin (Xayriddin Sultonning "Yaldo kechasi" romani misolida)	78
G'aybulloyeva Parvina Samandar qizi	
Aqli zaif bolalarda kommunikativ faoliyatning ontogeneza shakllanishi	82
Hamraqulova Durdona Dilshod qizi	
Neuroeducation va Phygital Learning asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv faolligini rivojlantirish metodikasi	87
Hikmatova Yulduz Nuritdinovna	




Autizm spektri buzilgan bolalarning ijtimoiy-pedagogik moslashuvining nazariy asoslari	91
<i>Shodmanxojiyeva Iroda Ne'matulla qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda o'yin texnikalarining roli	95
<i>Jamolova Farida Fatillo qizi</i>	
Ta'lim qardosh tillarga yo'naltirilgan mtt direktorining boshqaruv kompetentligini rivojlantirish mexanizmlari (Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida)	98
<i>Jumagulova Gulziya Madiyarovna</i>	
Oliy ta'limda talabalarning raqamli taqdimot va ommaviy nutq ko'nikmalarini axborot texnologiyalari vositasida takomillashtirish	103
<i>Junaydullayev Oxunjon Kaxorjon o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'yin texnologiyalari orqali nutq malakalarini rivojlantirish	107
<i>Maqsuda Maxsudovna Murodova</i>	
O'zbek tilida "nur" so'zining ko'chma ma'nolari	113
<i>Maxbuba Axatova</i>	
Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda raqamli texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari	116
<i>Misirova Nodira Tovbayevna, Nosirova Dilfuza Sa'dullayevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilida og'zaki nutqini shakllantirishdagi qiyinchiliklar	120
<i>Nabiyeva Xilola Abdulmuratovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ma'naviy-ma'rifiy qiyofasini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari... ..	123
<i>Niyozova Maftuna Normaxmat qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida "Tarbiya" fanini tabiiy fanlar bilan integratsiyalash asosida ekologik tafakkurni shakllantirish.....	126
<i>Norbo'tayeva Iroda Yunusovna</i>	
Suzish vositalari yordamida talabalarning qo'l va oyoq mushaklarini rivojlantirish metodikasi	130
<i>Nosirov Sardor To'lqinjon o'g'li</i>	
Bo'lajak pedagoglarning metakognitiv kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari	134
<i>Nosirova Ra'no Xamidovna</i>	
Dual ta'limda oliy ta'lim va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning mazmuni.....	137
<i>Qoraboyeva Zohidaxon To'lanboyevna, Tursunbayeva Sevara Abdullo qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar nutqida noverbal vositalarning roli.....	142
<i>Qurbanova Surayyo Tuynazar qizi, Maqsudboyeva Dilbar Olimjon qizi</i>	
Texnologiya fanini o'qitishda integrativ yondashuvning pedagogik zarurati va nazariy asoslari	146
<i>Qurbonmurotov Eldor Abdusaidovich</i>	
O'zbekistonning zamonaviy ta'lim muhitida o'zbek-rus bilingvizmi sharoitida o'quvchilar nutqining psixolingvistik xususiyatlari.....	149
<i>Qurdasheva Bonu Bexzod qizi</i>	
Xorij olimlari tadqiqotlarida prosotsial xulq-atvor namoyon bo'lishining o'rganilishi	153
<i>Rahimova Sarvinov Odilboy qizi</i>	
Musiqqa fanlarini o'qitishda inquire-based learning texnologiyasidan foydalanish metodlari.....	157
<i>Raximova Dilbar Rizakulovna</i>	
Maktab rahbarining qaror qabul qilish uslubi pedagogik jamoa ijtimoiy faolligini rivojlantirish omili sifatida..	161
<i>Raximova Maryam O'tkir qizi</i>	
Yosh sportchilarda yurak-qon tomir tizimining morfofunksional adaptatsiyasi va sportchi yuragi fenomeni..	173
<i>Alimova Nasiba Adxamovna</i>	
Mintaqaviy iqtisodiyotda turizm klasterlarini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari.....	179
<i>Kurbonova Kamola Ilxomovna</i>	
Nutq madaniyati va notiqlik san'ati	183
<i>Mamadaliyeva Lola Shailyasovna</i>	
Molekulyar fizikada klasster yondashuvi asosida masalalar yechish samaradorligini oshirish	188
<i>Mirzamuratov Baxodir Fayzullayevich</i>	
Oliy o'quv yurtlari, sport tashkilotlari va sport marketingi tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning zarurati.....	192
<i>Samatov Javlonbek Abdukayumovich</i>	



Bo'lajak biologiya o'qituvchilarida tolerantlik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari	276
Xidirov Faxriddin Fozilovich	
Транслингвальные практики русскоязычных мигрантов в условиях многоязычной среды	280
Рахмонова Нилуфар Уткир кизи	



XORIY OLIMLARI TADQIQOTLARIDA PROSOTSIAL XULQ-ATVOR NAMOYON BO'LISHINING O'RGANILISHI



Rahimova Sarvinoz Odilboy qizi
 Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti
 "Amaliy psixologiya" kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada xorij psixologiyasida prosotsial xulq-atvor muammosining o'rganilishi hamda uning namoyon bo'lishiga oid ilmiy yondashuvlar tahlil qilingan. Unda prosotsial xulq-atvorning mazmun-mohiyati, uning empatiya, altruizm, axloqiy rivojlanish, ijtimoiy o'rganish va biologik omillar bilan o'zaro bog'liqligi xorij olimlari tadqiqotlari asosida yoritilgan. Nazariy yondashuvlarda prosotsial xulq-atvor shaxsning axloqiy yetukligi, emotsional rivojlanishi, ijtimoiy muhiti va biologik xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq murakkab psixologik hodisa sifatida talqin etiladi. Shuningdek, maqolada prosotsial xulq-atvorni rivojlantirishda ijtimoiy muhit va axloqiy qadriyatlarining muhim ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: prosotsial xulq-atvor, empatiya, altruizm, axloqiy rivojlanish, ijtimoiy o'rganish, hamdardlik, ijtimoiy muhit, motivatsiya, yordam ko'rsatish, biologik yondashuv, sotsiobiologiya, xorij psixologiyasi.

Abstract: This article analyzes scientific approaches to the study of prosocial behavior in foreign psychology and the characteristics of its manifestation. The article examines the essence and content of prosocial behavior, as well as its relationship with empathy, altruism, moral development, social learning, and biological factors based on the studies of foreign scholars. Theoretical approaches interpret prosocial behavior as a complex psychological phenomenon closely associated with an individual's moral maturity, emotional development, social environment, and biological characteristics. The study also highlights the significant role of social environment and moral values in the formation and development of prosocial behavior.

Key words: prosocial behavior, empathy, altruism, moral development, social learning, compassion, social environment, motivation, helping behavior, biological approach, sociobiology, foreign psychology.

Аннотация: В данной статье проанализированы научные подходы к изучению проблемы просоциального поведения в зарубежной психологии, а также особенности его проявления. В статье раскрываются сущность и содержание просоциального поведения, его взаимосвязь с эмпатией, альтруизмом, нравственным развитием, социальным научением и биологическими факторами на основе исследований зарубежных ученых. В теоретических подходах просоциальное поведение рассматривается как сложное психологическое явление, тесно связанное с нравственной зрелостью личности, эмоциональным развитием, социальной средой и биологическими особенностями человека. Кроме того, в статье освещается важная роль социальной среды и нравственных ценностей в формировании и развитии просоциального поведения.

Ключевые слова: просоциальное поведение, эмпатия, альтруизм, нравственное развитие, социальное научение, сочувствие, социальная среда, мотивация, оказание помощи, биологический подход, социобиология, зарубежная психология.

KIRISH

Prosotsial xulq-atvor masalasi xorij psixologiyasida eng dolzarb va keng qamrovli tadqiq etilgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur tushuncha insonning boshqa kishilar manfaatini ko'zlab amalga oshiradigan ijtimoiy foydali xatti-harakatlarini ifodalaydi. Xorijiy tadqiqotchilar prosotsial xulq-atvor tarkibiga yordam berish, qo'llab-quvvatlash, hamdardlik bildirish, hamkorlik qilish, himoya qilish, saxovat ko'rsatish, ko'ngillilik faoliyati bilan shug'ullanish kabi harakatlarni kiritadilar. Bunday xulq insonlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlash, jamiyatda o'zaro ishonch va birdamlikni shakllantirishda muhim omil sifatida talqin qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xorij psixologiyasida prosotsial xulq-atvorni tushuntirishga doir turli nazariy yondashuvlar mavjud. Jumladan, bixevioristik yondashuv vakillari prosotsial xulqni ijtimoiy rag'bat va mustahkamlash mexanizmlari orqali shakllanuvchi xatti-harakat sifatida izohlaydilar. Ularning fikricha, inson yordam ko'rsatganida maqto'v, ijobiy baho yoki ijtimoiy qo'llab-quvvatlash olishi natijasida ushbu xulq takrorlanib boradi. Kognitiv yo'nalish vakillari esa prosotsial xulqning shakllanishida insonning vaziyatni anglash darajasi, axloqiy tafakkuri va qaror qabul qilish jarayonlariga alohida e'tibor qaratadilar. Gumanistik psixologiya namoyandalari prosotsial xulqni shaxsning ichki insonparvarlik ehtiyoji, o'zini namoyon etish va boshqalarga foyda keltirishga intilishi bilan bog'laydilar.

Xorijiy tadqiqotlarda prosotsial xulqning biologik asoslari ham o'rganilgan. Ayrim olimlar insondagi altruistik harakatlarni evolyutsion rivojlanish mahsuli sifatida talqin qilib, bunday xulq jamiyat va guruhning saqlanib qolishiga xizmat qilishini qayd etadilar. Neyropsixologik tadqiqotlarda esa empatiya, rahmdillik va yordam berish jarayonida miyaning muayyan tuzilmalari faol ishtirok etishi aniqlangan. Bu esa prosotsial xulqning nafaqat ijtimoiy, balki biologik asoslari ham mavjudligini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, xorij psixologiyasida prosotsial xulqning ijtimoiy-madaniy determinantlari ham keng tadqiq etilgan. Tadqiqotchilar oilaviy tarbiya, madaniy qadriyatlar, diniy qarashlar, ijtimoiy muhit va ta'lim tizimi prosotsial xulq rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydilar. Ayniqsa, kollektivistik madaniyatlarda o'zaro yordam, hamkorlik va jamoa manfaatini ustuvor qo'yish tendensiyasi kuchliroq namoyon bo'lishi qayd etilgan.

Xorij olimlaridan A.Kont birinchilardan bo'lib "altruizm" tushunchasini ilmiy muomalaga kiritgan. U altruizmni insonning boshqalarga foyda keltirishga qaratilgan ma'naviy xulqi sifatida izohlagan. Kont fikricha, jamiyat taraqqiyoti insonlarning o'zaro yordam va hamjihatligiga bog'liqdir.

J.Piaje bolalarda axloqiy tafakkur rivojlanishini o'rganib, prosotsial xulq-atvorning shakllanishi bolaning intellektual va kognitiv rivojlanish jarayoni bilan chambarchas bog'liq ekanligini asoslab bergan [6]. Olimning fikricha, bola axloqiy me'yorlarni bir zumda emas, balki bosqichma-bosqich o'zlashtiradi. Dastlabki davrda bolalar qoidalarni kattalar tomonidan o'rnatilgan o'zgarmas talab sifatida qabul qiladilar va ularga bo'ysunishni asosiy mezon deb biladilar. Ushbu bosqichda bolaning xatti-harakati ko'proq jazodan qochish yoki kattalarning ma'qullashiga erishish bilan belgilanadi. Keyingi rivojlanish bosqichida esa bolada mustaqil fikrlash, vaziyatni tahlil qilish hamda axloqiy baholash qobiliyati shakllana boshlaydi. Natijada u boshqalarning his-tuyg'ularini tushunishga, hamkorlik qilishga, adolat tamoyillariga amal qilishga va yordam ko'rsatishga intiladi. Piaje prosotsial xulqning rivojlanishini bolalarda ijtimoiy tajriba, tengdoshlar bilan muloqot va o'zaro hamkorlikning kengayishi bilan izohlaydi [6].

L.Kohlberg esa axloqiy rivojlanish nazariyasida prosotsial xulq-atvorni insonning axloqiy ong darajasi bilan bog'liq holda tushuntiradi. U axloqiy rivojlanishni bir necha bosqichlarga ajratib, insonning axloqiy qarorlari vaqt o'tishi bilan murakkablashib borishini ko'rsatadi. Kohlbergning fikricha, axloqiy rivojlanishning quyi bosqichlarida inson ko'proq jazodan qochish yoki shaxsiy manfaatni ko'zlab harakat qiladi. Keyingi bosqichlarda esa ijtimoiy ma'qullash, jamiyat qoidalariga rioya qilish va ijtimoiy tartibni saqlash muhim ahamiyat kasb etadi [5]. Eng yuqori bosqichda esa shaxs adolat, insonparvarlik, tenglik va universal axloqiy qadriyatlarni ustuvor deb hisoblaydi. Bunday inson boshqalarga yordam berishni tashqi talab yoki majburiyat sifatida emas, balki ichki ehtiyoj, ma'naviy mas'uliyat va insoniy qadriyat sifatida qabul qiladi. Shu bois Kohlberg nazariyasida prosotsial xulq insonning axloqiy yetukligi va ijtimoiy ongining muhim ko'rsatkichi sifatida baholanadi.

M.Hoffman prosotsial xulq-atvorning shakllanishida empatiya hal qiluvchi psixologik omillardan biri ekanligini ta'kidlaydi [4]. Olimning fikricha, inson boshqa kishining emotsional holatini ang'lay olishi, uning quvonch yoki qayg'usini ichki jihatdan his qilishi yordam ko'rsatish ehtiyojini yuzaga keltiradi. Shu sababli empatiya prosotsial xulqning asosiy manbasi sifatida talqin qilinadi. Hoffman nazariyasiga ko'ra, empatik kechinmalar bolaning ilk yosh davridan boshlab shakllanadi va asta-sekin murakkablashib boradi. Dastlab bola boshqalarning yig'isi yoki emotsional reaksiyasiga reflektiv tarzda javob qaytaradi, keyinchalik esa boshqa insonning hissiy holatini ongli ravishda tushunish qobiliyati rivojlanadi. Olim empatiyaning rivojlanishida oilaviy tarbiya, ota-onaning hissiy munosabati, mehr-muhit va ijtimoiy tajriba muhim o'rin tutishini qayd etadi. Uning fikricha, bolaga mehr-shafqat, g'amxo'rlik va boshqalarning his-tuyg'ularini hisobga olish kabi qadriyatlarni singdirish prosotsial xulqning rivojlanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, Hoffman empatiya insonda altruistik motivlarni shakllantirib, boshqalarga beg'araz yordam ko'rsatishga undashini alohida ta'kidlaydi [4].

N.Eyzenberg esa prosotsial xulq-atvorni emotsional, motivatsion va yoshga oid jihatlar asosida chuqur tadqiq etgan olimlardan biri hisoblanadi. U prosotsial xatti-harakatlarning shakllanishi insonning emotsional rivojlanishi bilan bevosita bog'liq ekanligini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Eyzenbergning tadqiqotlariga ko'ra, bolalarda yordam ko'rsatish, hamdardlik bildirish va boshqalarni qo'llab-quvvatlash kabi xulq shakllari yosh o'tishi bilan murakkablashib va ongli tus olib boradi [3]. Dastlab bolalarda prosotsial harakatlar ko'proq kattalarning talabiga yoki rag'batiga bog'liq bo'lsa, keyinchalik ichki motivatsiya va ijtimoiy mas'uliyat hissi



ustuvor ahamiyat kasb eta boshlaydi. Olim bolalarda rahmdillik, hamdardlik, boshqalarning ehtiyojini tushunish va axloqiy his-tuyg'ularning rivojlanishi prosotsial xulqning muhim omili ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, Eyzenberg prosotsial xulqning rivojlanishida emotsional o'zini boshqarish, ijtimoiy tajriba va tarbiyaviy muhitning ta'sirini ham alohida ta'kidlaydi. Uning ilmiy qarashlari prosotsial xulqni shakllantirishda oilaviy tarbiya, ta'lim muhiti hamda ijobiy ijtimoiy munosabatlarning muhim rol o'ynashini ko'rsatib beradi ^[3].

D.Batson tomonidan ilgari surilgan "empatiya-altruizm" nazariyasi xorij psixologiyasida prosotsial xulq-atvorni tushuntiruvchi muhim konsepsiyalardan biri hisoblanadi. Olim o'z tadqiqotlarida insonning boshqalarga yordam ko'rsatishi har doim ham shaxsiy manfaat yoki ijtimoiy rag'bat bilan bog'liq emasligini ilmiy jihatdan asoslashga harakat qilgan. Batsonning fikricha, agar inson boshqa kishining og'ir ahvoli, qayg'usi yoki azobini chuqur his qilsa, unda empatik kechinma yuzaga keladi va bu holat altruistik motivlarni shakllantiradi. Natijada inson yordamni mukofot olish, maqtovg'a erishish yoki o'z manfaatini ko'zlash uchun emas, balki boshqa insonning azobini kamaytirish maqsadida amalga oshiradi. Olim o'tkazgan eksperimental tadqiqotlarda empatiya darajasi yuqori bo'lgan insonlar vaziyatdan chiqib ketish imkoniyati mavjud bo'lsa ham yordam ko'rsatishga moyil bo'lishi aniqlangan. Bu esa altruistik xatti-harakatlarning ichki insonparvarlik motivlari bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Batson nazariyasi prosotsial xulqning emotsional asoslarini tushuntirishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

A.Bandura esa ijtimoiy o'rganish nazariyasida prosotsial xulq-atvorning shakllanishini kuzatish, taqlid qilish va ijtimoiy tajriba asosida izohlaydi. Uning fikricha, inson xulq-atvorining katta qismi boshqalarning harakatlarini kuzatish orqali egallanadi ^[1]. Ayniqsa, bolalar ota-ona, pedagog, tengdosh va ommaviy axborot vositalaridagi namunalarning xatti-harakatlarini kuzatib, ularni takrorlashga moyil bo'ladi. Agar bola atrofdagilarning mehribonlik, yordam berish, hamkorlik qilish va g'amxo'rlik kabi ijobiy xulqlarini ko'rsa, ushbu harakatlarni o'zlashtirib boradi. Bandura prosotsial xulqning rivojlanishida rag'batlantirish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning ham muhim o'rin tutishini ta'kidlaydi ^[1]. Ya'ni yordam beruvchi xatti-harakat ijobiy baholansa yoki ma'qullansa, bunday xulq yanada mustahkamlanadi. Olimning qarashlariga ko'ra, oiladagi sog'lom psixologik muhit, ota-onalarning o'zaro hurmati, pedagoglarning ijobiy munosabati hamda jamiyatdagi insonparvarlik qadriyatlarini prosotsial xulq rivojlanishining muhim omillari hisoblanadi. Shu jihatdan Bandura nazariyasi prosotsial xulqni shakllantirishda ijtimoiy muhit va shaxsiy namunaning kuchli ta'sirini ilmiy asosda yoritib beradi.

F.Zimbardo ^[7] va J.Darley ^[2] prosotsial xulq-atvorning vaziyatli omillarini tadqiq etgan olimlar sifatida ijtimoiy psixologiyada muhim o'rin egallaydi. Ularning ilmiy izlanishlari insonning yordam ko'rsatish xatti-harakati faqat shaxsiy fazilat yoki axloqiy qadriyatlarga emas, balki mavjud ijtimoiy vaziyatga ham kuchli darajada bog'liq ekanligini ko'rsatgan. Ayniqsa, olimlar tomonidan o'tkazilgan eksperimental tadqiqotlar "guvoh effekti" deb nom olgan hodisani ilmiy jihatdan asoslab berdi. Mazkur hodisaga ko'ra, favqulodda yoki yordam talab qiluvchi vaziyatda odamlar soni qancha ko'p bo'lsa, alohida individning yordam ko'rsatishga moyilligi shuncha kamayadi.

Darley va Zimbardoning tadqiqotlarida insonlar ko'pchilik ichida mas'uliyatni o'z zimmasiga olishdan qochishi, ya'ni "mas'uliyatning tarqalishi" kuzatilishi aniqlangan. Bunda har bir kishi yordamni boshqa biron amalga oshiradi deb o'ylaydi va natijada hech kim faol harakat qilmasligi mumkin. Olimlar, shuningdek, vaziyatning noaniqligi, ijtimoiy bosim, vaqt tanqisligi hamda boshqa insonlarning reaksiyasi prosotsial xulqqa sezilarli ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydilar. Masalan, agar atrofdagi odamlar vaziyatga befarq munosabat bildirsa, individ ham yordam ko'rsatishni ortga surishi mumkin. Aksincha, bir kishining faol harakati boshqalarning ham yordam ko'rsatish ehtimolini oshiradi.

Zimbardo prosotsial va antisotsial xulqni tushuntirishda ijtimoiy muhitning kuchli ta'sirini alohida qayd etadi. Uning fikricha, insonning xatti-harakati ko'pincha ichki sifatlarga emas, balki tashqi ijtimoiy sharoit, guruh ta'siri va vaziyat bosimi bilan belgilanadi. Shu jihatdan olim prosotsial xulqni rivojlantirish uchun jamiyatda ijtimoiy mas'uliyat, fuqarolik faolligi va o'zaro yordam qadriyatlarini kuchaytirish zarurligini ta'kidlaydi ^[7].

Biologik va evolyutsion yondashuv vakillari esa prosotsial xulq-atvorning tabiiy va genetik asoslarini tadqiq etganlar. Xususan, E.O.Vilson tomonidan ishlab chiqilgan sotsiobiologik nazariya prosotsial xulqning evolyutsion ildizlarini tushuntirishga qaratilgan. Olimning fikricha, inson va boshqa tirik mavjudotlarda yordam berish, hamkorlik qilish, guruh bo'lib yashash kabi xususiyatlar evolyutsion rivojlanish jarayonida shakllangan bo'lib, ular turning saqlanib qolishi va avlod davomiyligini ta'minlashga xizmat qiladi ^[8].

Vilson prosotsial xulqni biologik moslashuv shakli sifatida izohlaydi ^[8]. Unga ko'ra, qarindoshlarga yordam berish, jamoa manfaatini himoya qilish va o'zaro hamkorlik qilish kabi harakatlar genetik jihatdan foydali bo'lgani sababli inson evolyutsiyasida mustahkamlangan. Masalan, qarindoshlarni qo'llab-quvvatlash orqali umumiy genetik fond saqlanib qoladi. Shu bilan birga, insonlarning guruh bo'lib yashashi, o'zaro yordam va hamkorlikka asoslangan munosabatlari qadimgi davrlarda xavfsizlikni ta'minlash, oziq-ovqat topish hamda tashqi xavflardan himoyalanih imkoniyatini oshirgan.

Biologik yondashuv doirasidagi tadqiqotlarda prosotsial xulqning neyrofiziologik asoslari ham o'rganilgan. Ayrim ilmiy izlanishlarda empatiya, rahmdillik va yordam berish jarayonida miyaning muayyan hududlari faol ishlashi aniqlangan. Shuningdek, oksitotsin kabi gormonlarning insondagi ishonch, yaqinlik va hamkorlik hissini

kuchaytirishi qayd etilgan. Bu esa prosotsial xulqning nafaqat ijtimoiy va tarbiyaviy, balki biologik asoslari ham mavjudligini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda prosotsial xulq-atvor muammosining xorij psixologiyasida o'rganilishiga oid ilmiy-nazariy manbalarni tahlil qilishga yo'naltirilgan nazariy metodologik yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida xorijiy psixolog olimlarning prosotsial xulq-atvor, empatiya, altruizm, axloqiy rivojlanish hamda ijtimoiy o'rganish bilan bog'liq ilmiy qarashlari o'rganildi va qiyosiy tahlil qilindi.

Tadqiqotning metodologik asosini shaxs rivojlanishining ijtimoiy-psixologik, kognitiv, axloqiy hamda biologik yondashuvlari tashkil etdi. Jumladan, J.Piaje va L.Kohlbergning axloqiy rivojlanish nazariyalari, M.Hoffman va N.Eyzenbergning empatiya hamda prosotsial rivojlanishga oid ilmiy qarashlari, D.Batsonning "empatiya–altruizm" nazariyasi, A.Banduraning ijtimoiy o'rganish konsepsiyasi, F.Zimbardo va J.Darleyning vaziyatli omillar bo'yicha tadqiqotlari hamda E.O.Vilsonning sotsiobiologik yondashuvi metodologik manba sifatida xizmat qildi.

Mazkur metodologik yondashuv prosotsial xulq-atvorning ko'p omilli psixologik hodisa ekanligini ilmiy asoslash, uning rivojlanish mexanizmlarini yoritish hamda xorij psixologiyasidagi asosiy nazariy qarashlarni tizimli ravishda umumlashtirish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy-taqqoslash, tizimlashtirish, umumlashtirish va interpretatsiya metodlaridan foydalanildi. Xorij olimlarining ilmiy qarashlari prosotsial xulq-atvorning psixologik mohiyatini ochib berish nuqtai nazaridan o'zaro solishtirildi hamda ularning umumiy va farqli jihatlari aniqlandi. Shuningdek, prosotsial xulqning shakllanishiga ta'sir etuvchi emotsional, axloqiy, ijtimoiy va biologik omillar kompleks tarzda tahlil qilindi.

Tadqiqot davomida xorij psixologiyasida prosotsial xulq-atvor muammosiga oid ilmiy qarashlar tahlil qilinib, ushbu hodisaning shakllanishi va namoyon bo'lishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar aniqlashtirildi. Tahlillar natijasida prosotsial xulq-atvor insonning boshqalarga yordam berish, hamdardlik bildirish, hamkorlik qilish va jamiyat manfaatiga xizmat qiluvchi ijtimoiy foydali harakatlarida namoyon bo'ladigan murakkab psixologik hodisa ekanligi aniqlandi.

Umumiy tahlil natijalariga ko'ra, prosotsial xulq-atvorning shakllanishi emotsional, axloqiy, ijtimoiy va biologik omillarning o'zaro uyg'unligi asosida yuzaga kelishi aniqlandi. Shuningdek, oilaviy tarbiya, ijtimoiy muhit, ta'lim tizimi hamda axloqiy qadriyatlar prosotsial xulq rivojlanishining muhim omillari sifatida namoyon bo'lishi asoslab berildi. Mazkur natijalar prosotsial xulq-atvorni rivojlantirishga qaratilgan psixologik-pedagogik dasturlar ishlab chiqishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Umuman olganda, xorij psixologiyasidagi tadqiqotlar prosotsial xulq-atvorni shaxsning axloqiy yetukligi, emotsional rivojlanishi, empatik qobiliyati, ijtimoiy tajribasi va biologik xususiyatlarining uyg'unlashuvi natijasi sifatida talqin qiladi. Mazkur ilmiy qarashlar prosotsial xulqni shakllantirishda oilaviy tarbiya, ta'lim muhiti, ijtimoiy qadriyatlar, emotsional qo'llab-quvvatlash va ijobiy namunalarning muhim o'rin tutishini ko'rsatadi. Shu bois prosotsial xulqni rivojlantirish bugungi kunda barkamol shaxsni tarbiyalash, jamiyatda insonparvarlik munosabatlarni mustahkamlash hamda yoshlarni ijtimoiy faol va mas'uliyatli etib voyaga yetkazishda dolzarb psixologik masalalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bandura A. Social Learning Theory. – Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1977. – P. 247.
2. Darley J. M., Latané B. Bystander intervention in emergencies: Diffusion of responsibility. Journal of Personality and Social Psychology, 1968. – 377–383 p.
3. Eisenberg N. The Development of Prosocial Behavior. – New York: Academic Press, 1982. – P. 320.
4. Hoffman M. L. Empathy and Moral Development: Implications for Caring and Justice. – Cambridge: Cambridge University Press, 2000. – P. 298.
5. Kohlberg L. The Philosophy of Moral Development. – San Francisco: Harper & Row, 1981. – P. 420.
6. Piaget J. The Moral Judgment of the Child. – New York: Free Press, 1932. – P. 410.
7. Zimbardo P. G. The Lucifer Effect: Understanding How Good People Turn Evil. – New York: Random House, 2007. – P. 576.
8. Wilson E. O. Sociobiology: The New Synthesis. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1975. – P. 697.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.